

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

АЛ-ХОРАЗМИЙ НОМИДАГИ УРГАНЧ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

Кўлёзма ҳуқуқида

Хударганова Холида Олимбоевна


**ФРАНЦУЗ ТИЛИДА “ИНСОН ҲАТТИ-ҲАРАКАТИНИ”
ИФОДАЛОВЧИ ФРАЗЕОЛОГИК БИРЛИКЛАР**

5220100: Филология (инглиз, немис, француз тиллари)
Хорижий филология француз тили таълим йўналиши бўйича бакалавр
даражасини олиш учун тақдим этилган

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШ

Илмий раҳбар:

Самандарова Н.К



УРГАНЧ-2012

Kirish

Mamlakatimizda mafkuraviy mo'ljallarning yangilanishi, milliy istiqlol g'oyasining omma ongiga uzluksiz singdirilib borishi tafakkurni ham o'zgartirmoqda. Mafkuraviy jarayonlar voqe'likni aks ettiradigan ta'limiy faoliyat loyihalarini asoslaydigan fan sohasi, tasavurlarini qamrab olmasdan iloji yo'q. (I.A. Karimov Islohatlar strategiyasi – mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishdir. 2003-yil 17-fevral kuni so'zlagan nutqi). Kadrlar tayyorlash milliydasturi talablari asosida kengayib borayotgan tadqiqot yo'nalishlari erkin shaxsni shakillantirish muammolariga qaratilyapti. Bu esa ta'lim-tarbiya tizimida yangicha metodologik yondashuvlarning yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Bulardan kerakli xulosa chiqargan holda biz fransuz tilida inson hatti-harakati, xulq-atvorini ifodalovchi frazeologik birliklarni o'rganishga jazim qildik.

Frazeologiya bu leksikologiyaning maxsus qismi yoki tilshunoslikning mustaqil bir shaxobchasi hisoblanib, u so'z birikmalari (ya'ni frazeologik birliklar) ni o'rganadi. Tor ma'noda biron-bir yozuvchining asarlaridagi frazeologik iboralarni o'rganishdir. Odatda so'z birikmalari ikkiga: erkin so'z birikmalari va turg'un birikmalari (frazeologik iboralar)ga bo'linadi.

Agar erkin so'z birikmalari nutq jarayonida hosil qilinsa (un bonlivre, la maison de mon père, un livre intéressant), turg'un so'z birikmalari tayyor birliklar, leksik birliklar sifatida oldindan yasalgan bo'ladi. Frazeologiya aynan shu tayyor, oldindan yasalgan bo'ladi. Frazeologiya aynan shu tayyor, oldindan yasalgan turg'un so'z birikmalarini o'rganadi. Zamonaviy frazeologiyada har hil aspektlarda frazeologik birliklarni faol o'rganilishi kuzatiladi: semantik, grammatik, lingvomadaniy, kongitiv va boshqalar. Oxirgi yillarda ushbu yo'nalishlarda qilinayotgan ishlarda alohida e'tibor berilayotgani bu til birliklarining antropomarkaziy ahamiyatidagi izlanishlardir, chunki ko'pgina umummadaniy etnik, ijtimoiy muammolar ko'pincha til hodisalari orqali o'rganiladi. Til tizimining muhim darajalaridan dunyoqarashni, turmush-tarzi, fe'l-atvorini, odamlar xulqini ochib beruvchi vosita bu – frazeologiya hisoblanadi. Va ayni shu vosita orqali etnomadaniy me'orlar, xalq mentaliteti avlodan-avlodga o'tib boradi.

Dunyoni frazeologik ko'rinishidan u yoki bu xalqning dunyoni idrok etishida o'ziga xoslikni bilish mumkin. Ushbu ko'rinishning aniq fragmenti bu „ odam,, va u o'ziga boshqa ko'pgina fragmentlarni biriktiradi.

Xulq, xatti-harakat bu ijtimoiy psixologik va funksional hodisa hisoblanib u odam hayotida muhim o'rin egallaydi. Shu bilan birga har-bir xalq madaniyatida muhim ro'l o'ynaydi. „Inson xatti-harakati, xulqi,, atamasi xususiyatlar yig'indisi bo'lib , u odamni spesifik tarzda o'zi o'rgangan holda yashab ketishini ta'minlaydi. Inson „, fazilat,,lari, uning ijtimoiy hayotdagi o'rni asosan uning xulqi, o'zini tutishi, xatti harakatlari orqali belgilanadi: har bir inson o'zini belgili haq-huquqi, ayniqsa yoshiga va ijtimoiy holatiga munosib tarzda tutishilozim. „Inson zatti-xarakati,, tushunchasi fanning har-xil tarmoqlari sotsiologiya, psixologiya, madaniy antropologiya, lingvistikaning tadqiqot obekti

hiusoblanadi, ammo tilshunoslikda u yetarlicha o'rganilmagan. Shunday bo'lsada u leksikologiya va frazeologiya kabi nominatsiyalariga ega. Bu bilan bitiruv malakaviy ishimiz mavzusi belgilab olindi.

Shunday qilib tadqiqot dolzarbligi „inson xatti-harakati,, ma'nosini ifodalovchi frazeologik birliklarning yetarlicha o'rganilmaganligidandir. U milliy anglashning o'ziga xosliklarini ko'rsatib beradi, tilning dunyo manzarasida muhim o'rni bor, o'zining kelib chiqishi bo'yicha u til birliklarining qadimiy qatlamiga aloqador.

Ushbu bitiruv malakaviy ishning maqsadi fransuz tilida inson xatti-harakatini ifodalovchi frazeologik iboralarni kompleks o'rganishidir.

Frazeologik birliklar tahlili semantik va lingvomaniyatshunoslik yo'nalishlarida bajarilgan. Tadqiqotning umumiy maqsadi quyidagi aniq vazifalar qatorini belgilab berdi:

---- yaxlit tanlov metodi asosida leksik –frazeografik manbalardan „inson xatti-harakati,,ga ma'nosini ifodalovchi frazeologik birliklarni tanlab olish:

----- „inson xatti-harakati,,ni ifodalovchi frazeologik birikmalarning semantik klassifikatsiya qilish;

---- ushbu frazeologik birikmalarning lingvomamlakatshunoslikka aloqadorligini aniqlash.

Tadqiqot ishimizning obyekti bu fransuz tilidagi „inson xatti-harakati,, ma'nosini ifodalovchi frazeologik birliklardir.

Tadqiqot predmeti sifatida frazeologik birliklarning universal va spesifik (o'ziga xos) tafsirlari olingan.

Bitiruv malakaviy ishimizda tahlilning komponentli va onomasiologik metodlaridan foydalaniladi.

Izlanishimizning ilmiy yangiligi fransuz lingvomadaniyatining „inson xatti-harakati,, ma'nosini ifodalovchi frazeologik birliklarning nazariy va amaliy holatini o'rganishda o'z aksini topadi.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati zamonaviy frazeologiyaning kelgusi fundamental muammolarini qayta ishlashdir.

Ishning amaliy ahamiyati shundaki, bajarilgan tadqiqotning natijalari oliy o'quv yurtlarida umumiy tilshunoslik, qiyosiy tipologiya va shunigdek fransuz tili chet tili sifatida o'qitishda ishlatilishi mumkin.

Ishning tuzilishi. Ushbu bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, bob bo'yicha xulosalar, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I Bob. „ Inson xulq-atvorini,, ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari.

1.1. „ Inson xulq-atvorining ijobiy jihatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar.

Xulq- atvor qoidalari insonga aniq bir xolatlarida yoki qandardir bir harakatlardan o'zini tiyishi (xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish)da beriladi. Xulq – atvor qoidalari rioya qilish minimal faollik ko'rsatiladi, chunki odam ma'lum bir harakatlardan o'zini qiyadi. O'rganilgan xulq-atvor qoidalari rioya qilish o'z-o'zidan takrorlanuvchi harakatlarga aylanadi va odatiy xilq- atvor harakati hisoblanadi.

Xulq-atvor me'yorlariga rioya qilish yoki ularni buzish insonning shaxsiy – xarakterologik xususiyatlari bilan bog'liq. Jumladan mardlik, jasurlik, qatiyat, mustaqillik, sabr, matonat va hakoza kabi.

“Xarakter” so’zi bu odamning tub psixik xususiyatlarining yig’indisidir va u insonning har -bir xatti-harakatida namoyan bo’ladi. Bu narsa esa inson hayotdagi turlicha vaziyatlarda o’zini qanday tutishini belgilaydi.

Insonning fe’lini bilib, bir u har xil holatlarda qanday yo’l tutishini va uni nimalar kutishini bilamiz.

Insonning fe’l-atvoridagi ijobiy chizgilar- mardlik, jasurlik, qatiyat, haqiqatgorlik tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, vijdonlilik, salbiy chiziqlar esa-qo’rqotlik, yalqovlik, damduzlik (sirini hech kima aytmalik, ichimdagini top) va boshqalar.

Bir odamning mardligini, ikkimchi odamning qorqoqligini bilganimiz holda ularning ikkilasidan nima kutishni bilamiz.

Bir fransuz tilida inson xarakterini ifodalovchi iboralarni tadqiq qildik. Ular inson fe’l atvoridagi turlicha chizgilarni ifodalaydi. Bulardan eng asosiylari mardlik, jasorat va qat’iyatni nomayon etish ma’nosidagi frazeologik iboralar hisoblanadi.

Ularni ko’rib chiqami

1.Mardlikni, jasoratni nomayon etish ma’nosini beruvchi frazeologik birikmalar

Ushbu kichik guruhga quyidagi frazeologik iboralar kiradi:

aller au feu comme a la noce (so’zma-so’z; alamga tomon to’yga borayotgandek yurmoq.)- qiyinchiliklarni mardonavoy qarshi olmoq;

aller le front haut- o’zini mardlarcha tutmoq;

aller d’un léger- tezda ishga kirishmoq.

Mardlik – bu ijobiy fazilat bo’lib, o’zi uchun tura olish, qat’iyat, qattiq turmoq kabi xislatlar bilan uzviy bog’liq bo’lganligi sabab, biz uni quyidagi guruhlarga ajratdik:

1.1 “O’zi uchun turib bera olish ” ma’nosini ifodalovchi frazeologik birikmalar:

avoir son bec et ongles – tish –tirnoqli bo’lish;

avoir du coeur au ventre-yuragi otning kallasidek bo’lmoq;

avoir du sang dans les veines – yuragida o’ti bor:

avoir du chien dans le ventre – o’zinikida turib olmoq:

demeurer ferme – qarshilik ko’rsatmoq:

faire front à... – qarshilik bildirib rad qilmoq:

tenir à boules – yo’l qo’ymaslik:

faire les et les mains – o’lib tirilib harakat qilmoq;

1.2 “Qat’iyat bilan harakat qilish”, „ bor kuchini sarflash „, ma’nosini ifodalovchi frazeologik birliklar

Qat’iyat – insonning eng muhim xususiyatlaridan biri bo’lib, bu qarorlarni qabul qilish va ularni amalga oshirishning uzluksiz jarayonidir. Quyidagi shu ma’noni kasb etuvchi misollarni keltiramiz:

avoir en tête de... – bir narsaga qat’iyat bilan erishmoq:

avoir cent bras- judayam faol bo'lmoq;
être franc du collier- qat'iyat bilan harakat qilmoq;
faire voir du son eau – sariniga kir yuvmoq ;
fancer droit – bir qadam ham chekinmaslik:
piocher comme un boeuf- qattiq ishlamoq;
prendre son coeur à deux mains – jasur, botir bo'lmoq
prendre la lune avec les dents - osmondagi oyni olib bermoq;
prendre le taureau par les cornes - ho'kizni shohidan tutmoq;
partir du bon pied- ishni unumli boshlamoq;
prendre le lievre au collet-* maqsad sari intilmoq
travailler comme un boeuf – eshshakday ishlamoq;

Fransuz va o'zbek tillarida o'sha yuqorida keltirilgan frazeologik birliklarning ma'nolari o'zshash, ammo shaklan farq qilishadi:

se fendre à fond- olg'a bormoq;
aller front baut – ko'ksini qalqon qilmoq;
prendre le lièvre au collet – o'zini o'tga – cho'qqa urmoq;
se battre le flancs – o'zini bilmoq qolish:

Bu guruhdagi iboralardan faqatgina “prendre la lune avec les dents” biroz “osmondagi oyni olib bermoq” iborasi bilan yaqinroq ma'no kasb etadi.

Travailler comme un boeuf (qattiq ishlamoq), piocher comme un boeuf (eshshakdek ishlamoq) iboralari negizida obrazli qiyoslash yotadi, Qiyoslashni ikkinchi bo'lagi bu zoonimlar bo'lib, uning qo'llanilishi ma'noni kuchaytirishga va ekspressiv efpekt yaratishga xizmat qiladi.

Qator iboralar asosida metaforik ma'nolar yotadi;

avoir du chien dans le ventru,
prendre le lievre au collet – maqsad sari to'g'ri qadam tashlamoq, ho'kizning burnidan ip o'tkazib olmoq.

2. „ Qat'iyatni namoyon qilish,, ma'nosini anglatuvchi iboralar:

Ushbu guruhga kiruvchi iboralarni keltiramiz::

donner du bec et de l'ongle – bor imkonini ishga solmoq;
decrocher la lune – oyni olib bermoq;
s'escrimer de l'aile du bec – tish-tirnog'i bilan kirishmoq;
gagner du chemin –muvaffaqiyatga erishmoq;
mener tambour battant – g'ayrat bilan harakat qilmoq;
mettre les atouts dans son jeu – bor-budini tikib ishga kirishmoq;

mourir les armes à la main – oxirigacha kurashmoq;
réussir son coup – muvaffaqiyatga erishmoq;
se mettre l'âme à l'envers – jonini jabborga bermoq;
suer à froid – bor kuchi bilan harakat qilmoq;
suer sang et eau – jon-jahdi bilan ishlamoq;

Quyidagi esa mazmun jihatdan o'xshash ammo shaklan farq qiluvchi iboralarni aytib o'tamiz:
donner du bec et de l'ongle – bor imkonini ishga solmoq;
se battre pied à pied – bor kuchi bilan harakat qilmoq;
se mettre en quatre, suer sang et eau – qora terga botib ishlamoq.
S'escrimer de l'aile et du bec (so'zma-so'z: qanotlari va tumshug'ini ishga solmoq) iborasi metaforik ma'no kasb etadi va „bor kuchi bilan harakat qilmoq, ma'njsini bildiradi. Xuddi shu holat quyidagi iboralarda ham kuzatiladi:
tenir les rênes: tenir le haut bout: mettre la matraque: mettre toutes les voiles dehors: o'lib-tirilib harakat qilmoq, tirishmoq.

Shuni ta'kidlash lozimki „qat'iyat, o'zida aks ettiruvchi iboralar fransuz tilida anchayin boy ekanligi ko'rinib turibdi. O'zbek tilidagi „bor imkonini ishga solmoq, iborasi fransuz tilida to'rtta – beshtasi to'g'ri keladi: mettre la matraque, mettre toutes les voiles dehors; mettre les atouts dans son jeu; remuer ciel et terre.

3. „Dadillikni, mustaqillikni, ifodalovchi frazeologik iboralar:

Ushbu guruhga 9ta fransuz tilidagi iboralar kiradi:

agir à sa tête- o'z bilganicha ish qilish
aller à sa tête – o'z ixtiyori bilan harakat qilmoq
jouer des coudes – o'ziga yo'l tanlamoq;
mener bien sa barque – aravasini o'zi tortmoq;
mettre la à la pâte – ishga o'zi kirishmoq;
tenir le haut bout – bosh bo'lmoq;
faire Charlemagne – yutuqdan so'ng o'yindan chiqmoq;
faire à sa tête – o'z bilganicha ish tutmoq;
tenir les rênes – tizginni, jilovni o'z qo'liga olmoq;

Agir sa tête, faire à sa tête iboralarida tête (bosh) leksik komponenti mustaqillik, dadillik, tushunchasiga mos keladi.

4. „Ehtiyotkor bo'lish, ma'nosini ifodalovchi iboralar; Bu guruhda 20 tacha fransuz tilidagi iboralar bor.

Ehtiyotkorlik – bu inson xarakteri sifati bo'lib, u sezgir, vazmin, og'ir-bosiqlikni namoyon etadi.

Quyidagi „ehtiyotkorlik, ma'nosidagi frazeologik iboralarni keltiramiz;

aller bride à la main – ehtiyot bo'lib harakat qilmoq;
avoir bon pied, bon oeil – kuchli nazorat qilish;
avoir un oeil aux champs l'autre a la ville – judayam ehtiyotkor bo'lmoq;
avoir l'oreille au vent – qattiq quloq bo'lmoq;
avoir l'oeil sur – hushyor bo'lmoq;
dresser le nez – hushyor tortmoq;
faire bonne garde – qulog'ini ding qilmoq;
faire dans la dentelle (so'zma-so'z; narsani qo'lqop bilan bajarmoq) – juda ehtiyot bo'lmoq; garder des mesures – ehtiyotkorlik ila harakat qilmoq;
marcher sur les aufs – (so'zma-so'z; tuxum ustida yurmoq) ehtiyotkorlik qilmoq;
ouvrir l'oeil – shay turmoq;
regarder de biais – ishongiramaslik;
savoir jouer sa carte – diplomatik tarzda harakat qilmoq;
savoir niviguer entre les ecueils – hatardan qochmoq;
tenir sous ses yeux – kuzatuvida ishlamoq.

Mazmun jihatdan mos, ammo tuzilishi jihatdan turlicha bo'lgan iboralari;

ouvrir l'oeil – ko'z-quloq bo'lmoq;
aller bride à la main – hushyor bo'lmoq;
ecouter d'ou vient le vent – qulog'ini ding qilmoq; mettre les gants blancs – hushyor bo'lib turmoq

Quyidagi frazeologizmlarning negizida metaforik ma'no yotadi;

tourner à tout vent – burnini shamolga tutmoq.

Aller bride a la main – qo'lida qo'ng'iroq bilan yurmoq.

„ Ouvrir l'oil , avoir l'oeil sur qn, avoir bon pied, bon oeil, tenir sous ses yeux„, iboralarida oiel, yeux leksik komponentlari „diqqat„, va ehtiyotkor ma'nolari bildirish uchun qo'llanilgan.

5. „Sukut saqlash„, ma'nosini ifodalovchi iboralar;

Kommunikativ faoliyatni ro'yobga chiqarishfagi muvaffaqiyat, asosan psixologik kontakt o'rnatishda, sezilarli darajada odamning kirimliliigi bilan bog'liq bo'ladi. Biz bu borada, (ko'p sonli) ya'ni , „zukur saqlash, ko'p gapirmaslik„, haqida anchagina misollar yig'dik.

Birinchi kichik guruhda „sukur saqlovchi, jim turuvchi„, kabi fazilatlarini aks ettiruvchi iboralar keltirilgan:

avalier sa langue – tilini yutib yubormoq;
avalier de l'eau – og'ziga qatitq solmoq;
avalier sa salive – gapirmay turmoq;
avoir un boeuf sur langue – gapga qo'shilmaslik;
avoir le bec (cousu) gele - tili aylanmaslik;

demeurer le bec (cousu) g  l   - tillarini tishi bilan qisib turmoq;

  tre ma  tre de sa langue – tilini tiya bilmoq;

mettre sa langue dans sa poche – tilni tiymoq;

se mordre la langue – tilni tishlamoq;

tenir son bec – tilni tiymoq;

tenir sa langue au chaud – tilni tiymoq;

tirer le rideau sur – sukut saqlamoq;

Yuqoridagi keltirilgan misollarga ko'ra biz yana bir marta fransuz tilining so'z boyligi keng ekanligiga amin bo'ldik. Chunki o'n beshtacha iboradan o'zbek tilida beshtacha ekvivalent topdik xolos. Bular quyidagilar:

Og'ziga talqon salmoq, ivitmoq, tilini tiymoq va tilini tishlari bilan so'zga ushlab turmoq kabilardor.

Se mordre la langue – tilini tishlamoq frazeologizmi o'zbek tilidagi variantlar bilan tamomila o'xshash.

Keltirilgan fransuz tilidagi frazeologik iboralarning semantika (ma'no)sida inson o'z xatti-harakatini boshqara olishi mumkinligi ko'rinib turibdi.

Shu bilan birga har xil holatlarda salbiy ta'sir etmasdan, qo'polga qo'pollik bilan, zarbaga zarba bilan emas, balki sukut saqlab, bekorga kuch sarflamasdan, muvozanatni saqlagan holda o'z tuyg'ularini nazorat qilib til topishishishni bilish darkor.

1.2 Inson xulq-atvorining salbiy jihatlarini ifodalovchi frazeologik birliklar.

Inson xulq-atvorining salbiy tomonlarini ko'rsatuvchi frazeologizimlar o'n bir guruhga ajratildi.

- 1) halaqit bermoq, to'sqinlik qilmoq, ta'qib qilmoq;
- 2) aldamoq, xato qilishga sabab bo'lmoq;
- 3) bekor yurmoq, yalqovlik qilmoq;
- 4) maqtanmoq, og'iz ko'pirtitmoq;
- 5) vaysamoq, ko'p gapirmoq;
- 6) hukumronlik qilmoq; o'ziga qaram qilmoq;
- 7) janjallashmoq; shovqin ko'tarmoq
- 8) ayyorlik qilmoq;
- 9) e'tiborlik bilan qaramoq, yondashmoq;
- 10) xira shilqim bo'lmoq; yaltoqlanmoq;
- 11) befarqlik; e'tiborsizlikni namoyon qilmoq;

Material tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikkala tilda ham inson xulq – atvoridagi salbiy baho mavjud.

„Frazeologiyada, - deb ta'kidlaydi

L. Royzenzon, - salbiy holatni ifodalovchi maydon (miqdor jihatdan) ijobiy holatni ifodalaydigan maydondan kuchliroqdir. Bu dunyodagi barcha tillar frazeologiyasining qonuniyatidir,,

1. „Halaqit bermoq,, „qiyinchilik tug'dirmoq,, ta'qib qilmoq,, ma'nosini ifodalovchi frazeologizmlar.

Ushbu guruhdagi iboralar soni juda ko'p: u fransuz tilida yetmish to'qqiztasini o'z ichiga oladi. Tanlangan frazeologizmlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, quyidagi harakatlar salbiy holatni ifodalashda obyekt bo'lib ishga tushadi: kimgadir biron-bir ish qilishida halaqit bermoq, qandaydir bir ish qilishda to'sqinlik qilmoq: kimnidir ta'qib qilmoq:

aboyer dans ses jambes – oyog'iga osilmoq:

appuyer la chasse – tinmay ta'qib qilmoq:

arracher l'âme – ko'nglini o'g'ritmoq:

arretêr le bras de gn – birovga halaqit bermoq:

arriver comme les carabiniers d'offenbach – kechikib paydo bo'lmoq:

avoir la main haute – birovga erk bermaslik:

avoir pied et poings liés – qo'l-oyog'i bog'li bo'lmoq:

brasser une intrigue – janjal, nizo chiqarmoq:

casser du sure sur la tête de qn – birovning boshidan mag'zava ag'darmoq:

casser les pattes à qn – halaqit bermoq:

chauffer à blanc – qattiq jahlini chiqarmoq:

se mettre à la traverse – yo'lini kesmoq :

jeter des batons dans les roues – halaqit bermoq: oyog'idan tortmoq:

couper l'herbe sous le pied à qn – kimgadir halaqit bermoq va qiyin holatga solmoq:

couper les jarrets – oyog'idan chalmoq:

couper la parole à qn – gapini bo'lmoq: gapirishga bermaslik:

creuser une mine – choh qazimoq:

croiser le chemin à qn – kimnidir yo'lini kesib o'tmoq:

lancer un lievre – to'siq bo'lmoq:

deferrer qn à quatre pieds - kimnidir tang ahvilda qoldirmoq:

donner de l'urticaire à qn (so'zma-so'z: qichitqi o't tutganog'icha olib borish kimnidir) kimnidir haddan tashqari asabiylashishga olib kelmoq:

dire dans le dos – orqasidan gapirmoq: g'iybat qilmoq:

faire bouillir le sang à qn – kimnidir qonini qaynatmoq:

faire de mauvaise affaires – qiyin, tang ahvolga solmoq:

faire des accres à qn – to'sqinlik qilmoq;
faire canailleuries à qn – kimgadir pand berib suloh kiydirmoq;
faire des miseres à qn – tinimsiz hafa qilib tinchlik bermaslik;
faire chanter qn – shantaj qilmoq;
faire la vie dure à qn - birovning hayotini zaharga aylantirmoq;
faire pièce à qn – tushirib ketmoq : ta'bini hira qilib ketmoq;
faire un pied de cochon à qn – kimgadir firib bermoq;
faire un pied de nez – birovni ustidan kulmoq;
faire une attrape à qn - birov bilan qaltis hazil qilmoq;
flater à contre-poil – teskari, zid ish qilmoq;
forcer la main – qo'l-oyog'i bog'li bo'lmoq;
jeter le blâme sur.... – badnom qilmoq, qoralamoq;
jeter le chat aux jambes de qn – pand bermoq, firib bermoq;
ourdir des intrigues – fitna uyushtirmoq;
lier les mains à qn – harakat qilishga yo'l qo'ymaslik: to'sqinlik qilmoq;
marcher sur les oignons de qn – birovning ishiga burnini tiqmoq;
marquer qn à l'encre rouge – g'azabini ichiga yutib yurmoq;
mener à la cravache – iskanjaga olmoq;
mettre qn en blanc – kimnidir tushirmoq: bir ko'ylakda qoldirmoq;
mettre qn à cul – kimnidir tang ahvolda qoldirmoq;
mettre un baillon à qn - og'ziga urmoq;
mettre qn en boîte – devor suyatib ketmoq;
mettre sur les dents – tinkasini quritmoq;
montrer les dents – tish tirnog'ini ko'rsatib qo'ymoq;
montrer le poing à qn - mushtini do'laytirmoq;
ôter à qn son bon beurre – kimnidir kirimdan qoldiqmoq;
passer la jambe à qn – birovning oyog'idan chalmoq;
passer la plume par le bec à qn – birovning yo'liga ko'ndalang turmoq;
pousser au rouge – quyushqondan chiqarmoq;
prendre qn à la gorge – birovni giribdonidan olmoq;
reduire qn au blanc – birovni qashshoqlikkacha olib bormoq;
reduire en poussiere – kulini ko'kka sovrmoq, yakson qilmoq;
reduire en poudre – surib tashlamoq, uchirib yubormoq;
rendre noir – badnom qilmoq; tuxmat qilmoq; nomini yomonotliqqa chiqarmoq;
rentrer les – iques noirs – noo'rin, qo'pol tarzda suhbatga aralashmoq;

reprocher un cheveu de la tete – kimgadir ilakishib olmoq;
rouler dans la fange – birovni loyga qorishtirmoq;
saigner jusqu’au blanc – xonavayron qilmoq;
serrer la visà qn – birovni iskanjaga olmoq;
souffler sur les braisses – olovga moy sepmoq;
tailler de la besogne à qn – kimgadir bezovta qarchilik keltirmoq;
tenir le de la conversation – birovni gapirishga qo’ymay halaqit bermoq;
tirer à boulets rouges sur qn – ayamasdan hujumga o’tmoq;
tirer dans les jambes à qn – kimnidir rejalarini buzmoq : qaltis hazil qilmoq;
tirer dans les patles de qn - oyog’idan olmoq;
tourner en ridiaule – kulgiga burmoq;
trainer qn dans la boue – kimnidir ustidan mag’zava quymoq;
traiter qn comme un chien – kim bilandir juda qo’pol muomalada bo’lmoq;
trayer le pie – qon qaqshatmoq, jonini sug’urmoq;
verser de l’huile sur le feu – olovga moy sepmoq;

O’zbek tilida yuqorida ko’rsatilganlar quyidagicha ifodalanadi: oyog’iga bolta urmoq, oyog’idan chalmoq, tutaqtirmoq, quyishqondan chiqarmoq: to’siq bo’lmoq, beliga tepmoq, barmog’i bilan qonini qaynatmoq, asabini o’ynatmoq, asabiga tegmoq, xonavayron qilmoq, kulini ko’kka sovurmoq, mo’ljalga olmoq, olovga moy sepmoq, orqasidan gapirmoq, piching qilmoq, ustidan mag’zava quymoq, miyasini achitmoq, yarasini tirnarmoq, ya’ni eski dardini qo’zg’amoq, iskanjaga olmoq;

janjal chiqarmoq, boshi berk ko’chaga tigib qo’ymoq, devorga suyamoq.

Fransuz va o’zbek tillarida ushbu kichik guruhlardagi frazeologik birliklarning ma’no va shakl jihatdan mos keladiganlari ham bor;

giribonidan olmoq – prendre qn à la gorge;
olovga moy sepmoq – verser de l’huile au feu;
kulini ko’kka sovurmoq – reduire en poudre;
orqaravotdan gpirmoq – dire dans le dos;
montrer les dents – tishlarini ko’rsatib qo’ymoq;
rendre noir – qora chaplamoq;
montrer le poing – mushtini do’laytirmoq va hazazolar.

Yana tillararo frazeologik sinonimlarni ham sanab o’tish lozim. Ularning ma’nosi o’xshash, ammo shakli turlichadir:

kimgadir pand bermoq – jeter le chat aux jambes de qn;
birovning hayotini zaharga aylantirmoq – mener la vie dure à qn;

iskanjaga solmoq – tenir qn en bride:

to'sqinlik qilmoq – lancer un lievre; casser les pattes à qn.

Ba'zi frazeologizmlar o'zida bir shaxsga nisbatan o'tkazadigan harakatini ifodalaydi;
tourner le sang – o'zidan chiqarmoq;

mettre sur les dents – tinkasini quritmoq;

blessé qn au coeur yoki arracher l'ame - ko'nglini, dilini og'ritmoq.

2. „Aldamoq, yo'ldan adashtirmoq„, ma'nosini anglatuvchi frazeologik birliklar.

Tahmin qilinayotgan fransuz tilidagi frazeologizmlar guruhida „aldamoq, yo'ldan urmoq„ kabi salbiy jihatlarni aks ettiruvchi iboralardan ellik yettitasi bor;

aller à Cracovie – aldamoq:

en avoir de bonne – kimnidir aldab ustidan kulmoq:

conter les fables – laqillatmoq;

crier la famine sur un tas de ble - qilib ko'rsatmoq, mug'ombirlik qilmoq:

deplumer la dinde – birovning hisobiga kun ko'rmoq:

donner du goupillon à qn – puch vadalar bermoq;

faire accroire à qn – gapni aylantirmoq: faire banqueroute a ... – so'zida turmaslik, ahdini buzmoq:

faire barbe de paille – laqillatmoq:

faire boire un bouillon qn – boplab laqillatmoq, chuv tushirmoq:

faire des dupes – jinni qilmoq;

faire foux bond à ... – aldamoq:

faire prendre vessie pour lanterne – chuv tushirmoq;

faire un trait de Normand – aldovga uchmoq;

jeter de la poudre aux yeux de qn – ko'ziga cho'p tiqmoq;

jouer des qobelets – g'irromlik qilmoq:

jouer les mains – aldab ketmoq:

jouer de la prunelle – avramoq:

jouer au chat et au souris – mushuk sichqon o'ynamoq:

mener qn en bateau – daryoga olib borib , suvsiz olib kelmoq:

mettre en bandeau à qn – aldamoq;

montrer le lobechon à qn – kimnidir ahmoq qilmoq.

noyer le poisson – gapni aylantirmoq;

payer de mots – va'dalar bermoq;

promettre plus de beurre que de pain – qo'ynini puch yong'oqqa to'ldirmoq:

vendre du noir à qn – adashtirmoq:

battre comtois – mug'ombirlik qilmoq;
faciner les yeux – noaniq tasavvurga ega qilib aldamoq;
battre entiffe – ahmoq qilmoq;
faire l'â pour avoir du bran – laqillatmoq;
faire le bon apotre – o'zini mulla qilib ko'rsatmoq;
faire devenir chevre – firib bermoq; tuzlamoq;
faire un trou à la lune – qarzlarini to'lamasdan qochib qolmoq;
jouer à la faussi compagnie – so'zidan qaytmoq;
masquer les batteries – o'zining aniq maqsadini yashirmoq;
prendre une bonne figure – o'zini yaxshi ko'rsatmoq;
menter par la gorge – bezrayib, ko'zini lo'q qilib yolg'on gapirmoq;
faire jambe de bois – to'lamay ketvormoq;

O'zbek tilida ushbu kichik guruh quyidagi frazeologizmlarni o'z ichiga oladi; adashtirmoq, ichiga kirmoq, ishonchiga kirmoq, rolga kirmoq, qopqon qo'ymoq; tuzoqqa tushirmoq; izlarini chalkashtirmoq, miyasini g'ovlatmoq, boshini aylantirmoq, qulog'iga lag'mon osmoq, chuv tushirmoq.

Lekin – frazeografik manbalardan, keltirilgan misollarda yuqoridagi ma'nolarni kasb etuvchi frazeologik birliklar fransuz tilida anchagina ko'p.

3. „Ishsiz bo'lmoq, yalqovlik qilmoq, ma'nosini ifodalovchi frazeologizmlar.

Ushbu kichik guruhga o'ttiz oltita fransuz tilidagi frazeologik birliklar kiradi;

aller deca et dela – maqsadsiz u yoqdan bu yoqqa borib kelib yurmoq;
avoir tajours les mains dans sa poche – hechnarsa qilmaslik; qo'lini sovuq suvga urmaslik;
avoir mal au coude – yolqov bo'lmoq;
battre le pave – sug'ormoq;
bayer aux corneilles – yuldiz sanamoq;
aimer besogne faite – tayyorga ayyor bo'lmoq;
avoir la cagne – yalqovlik qilmoq;
ne pas se faire des ampoules – jonini qiynamaslik;
avoir la casse – ishyoqmas bo'lmoq;
avoir un train de retard – hayolparast bo'lmoq;
s'attacher aux branches – keragi yo'q ish bilan shug'ullanmoq;
battre l'eau – befoyda ish qilmoq.
se croiser les bras – qo'lini qovushtirib o'tirmoq;
chercher la lune en pleine jour – bekorga vaqt sarflamoq;
dormir sur le manche – it sug'ormoq;

s'endormir sur la besogne – qo'lining uchida biron bir ish qilmoq;
faire Saint-Yundi – yalqovlik qilib yashnatmoq;
peigner la girafe – bekorchilik qilmoq;
promener son cardavre – o'ligini artmoq;
regarder qui a le plus beau nez – bekorchixo'ja bo'lmoq.
regarder voler les hirondelles – yuldiz sanamoq;
rester les deux pieds dans le meme souliers – ikki oyog'i bir eshikda qolmoq, qo'l qovushtirib o'tirmoq;
tailler des bavettes – gap sotmoq, valaqlamoq;
trainer sa peau – dangasaligi tutmoq;
vivre aux crochets de qn – kimnidir ensasiga minib kun ko'rmoq.
Trier au flanc – ishdan qochmoq;

O'zbek tilida esa bu guruh quyidagi frazeologizmlar orqali ifodalanadi; yuldiz sanamoq; ahmoq qilmoq, ishdan qochmoq, birovning ustiga o'ligini ortmoq; it sug'ormoq; chivin qo'rimoq; qo'l qovushtirib o'tirmoq; tayyorga ayyor bo'lmoq.

4. „Maqtanchoq, manmansiramoq, gerdaymoq, ma'nolarini ifodalovchi iboralar.

Ushbu guruhga o'ttiz sakkizta fransuz tilidagi frazeologizmlar kiritiladi;

se donner des airs – o'zini keraksitmoq, burni ko'tarilib ketmoq;

faire des beaux bras – o'zini aqilli qilib ko'rsatmoq;

se faire blanc de son epee – o'zini ko'p narsalarga qodir qilib ko'rsatmoq;

Frazeologik iboralarni, ularning xarakterli xususiyatlarini chuqur o'rgangan Shvetsariya tilshunosi Sh. Ballidir. U hamma so'z birikmalarini ularning o'zaro qo'shilish darajasiga ko'ra ikki katta guruhga, ya'ni erkin so'z guruhlari va turg'un (ajratib bo'lmaydigan) so'z guruhlari ajratadi. Akademik V. Vinogradov rus tilining frazeologik iboralarni o'rganishda o'zining yuksak hissasini qo'shdi. Turg'un so'z guruhlari qismlarining bog'lanish darajasi ularni klassifikatsiyalash asosida turadi.

V. Vinogradov o'z diqqat e'tiborini frazeologik iboralarning tuzilish tartibi va grammatik xususiyatlariga qaratdi. Frazeologik iboralarni tashkil etuvchi bo'laklarning qo'shilish darajasiga binoan hamma turg'un so'z birikmalarini uchta katta kategoriyaga ajratdi.

1) frazeologik chatishma

2) frazeologik qo'shilma

3) frazeologik birlashma.

Semantik tasnifi asosida ham fransuz tili frazeologik birikmalarini uchta asosiy turga bo'lish mumkin;

1) sintetik guruh (frazeologik chatishma)

- 2) oraliq guruh (sintetik-analitik birikma frazeologik qo'shilma)
- 3) analitik guruh (frazeologik birlashma).
1. Sintetik guruh (frazeologik chatishma) o'zining tashkil qiluvchi bo'laklarning eng yuqori qo'shilish darajasi bilan xarakterlanadi.

Bu guruhda ayrim so'zlarning ma'nosi mustaqil mavjudlikdan mahrum bo'lib, bitgalikda ajratib bo'lmaydigan semantik(ma'no) butunligini tashkil etadi, ya'ni frazeologik chatishmaning ma'nosi uni tashkil etgan bo'laklarning birligidan kelib chiqadi. Masalan;

être tout chose – o'zini butunlay yo'qotib qo'ymoq;

prendre la poudre d'escampette – juftakni rostlamoq; juger à huis clos – chet kishilarni kirgizmasdan muhokama qilmoq;

chercher noise à qn - birov bilan janjallashmoq;

dans son for interieur – qalbining to'rida;

prendre en grippe – yomon ko'rmoq;

n'être pas dans son assiette – o'zida bo'lmaslik;

n'avoir ni sou, ni maille – puldan ship-shiydam bo'lmoq.

Bu frazeologik chatishmalarda leksik va grammatik arxaizmlar bo'lib, ularning tarixiy ma'nolarini bilmasdan chatishmalarni tarjima qilib yoki tushinib bo'lmaydi. Masalan; huis clos – yopiq eshik, maille – kichik,bo'linmaydigan chaqa pul), noise – janjal va hokazalar.

Peril en la demeure – frazeologik chatishmada ham esirgan ma'noni ko'rish mumkin (vaqt kutib turmaydi). Bunda „demeure,, so'zi „ertaga qoldirish,, ma'nosida kelgan bo'lib, hozirgi paytda faqat yuridik amallarda uchraydi.

Bu frazeologik chatishmalar yoki idiomalarda, iste'moldan chiqib ketgan so'zlarni uchratish mumkin. Masalan;

aller au diable Vauvert – dunyoning narigi burchagiga, juda uzoqqa ketmoq;

Frazeologik chatishma yoki idiomalarda tarkibiy qismlarini sinonim so'zlar bilan ham almashtirish mumkin emas. Masalan:

n'avoir pas froid aux yeux – jasur bo'lmoq, idiomasida yeux so'zini sinonimi mirettes bilan almashtirib bo'lmaydi.

2. Fransuz tilida turg'un so'z birikmalarining bir turi, ya'ni sintetik-analitik turi, frazeologik chatishma (idioma)larga nisbatan kamroq qo'shilib ketgan turi mavjud, bunda avvalo tashkil etuvchi bo'laklarning o'xshashligini farq qilish kerak. Bu turda frazeologik iboralar V.V.Vinogradov klassifikatsiyasidagi frazeologik birlashmaga yaqin. Masalan: prendre congé de qn, rendre compte, avoir faim, faire peur, à poings fermés.

Frazeologik iboralarning bu turi fe'lli iboralar ham deb yurgiziladi.

3. Analitik guruh yoki frazeologik qo'shilmani tashkil qiluvchi bo'laklardan shu guruhning ma'nosini aniqlab olish mumkin. Masalan:

passer l'éponge - unitmoq, kechirmoq;

rire du bout des levres – so'zga kulmoq;

avoir la langue liée- kam gapirmoq.

Frazeologik qo'shilmalarni tashkil qiluvchi so'zlar o'z ma'nolaridan ajratilmay, o'ziga xos xususiyatlarini saqlab qoladi, binobarin, frazeologik qo'shilmaning umumiy ma'nosi uni tashkil etuvchi bo'laklarning aniq ma'nosidan kelib chiqadi. Masalan:

conte (récit) à dormir debout – cho'pchak, uydirma;

tirer (à qn) une epine du pied – mushkul ahvoldan olib chiqmoq;

laver son linge sale en famille – janjalni yashirincha tinchitmoq;

avoir la langue bien pendue – ravon gapirmoq;

Frazeologik qo'shilmalar orasida fransuz tiliga xos bo'lgan jonli taqqoslash turini ko'rsatish mumkin, ular juda ko'p ishlatiladi.

manger comme quatre – to'rt kishining ovqatini emoq;

être têtu comme un âne – eshakday qaysar bo'lmoq

marcher comme une tortue – toshbaqaday imillab yurmoq;

pleurer comme une fontaine – buloqday toshib yig'lamoq;

rester muet comme un poisson – baliqday gung bo'lmoq;

être beau comme le jour – oydek go'zal bo'lmoq;

Frazeologik qo'shilmalar ichida maqolli iboralar alohida o'rinda turadilar, aynan shu maqolli iboralarni tashkil etuvchi bo'laklarning manosidan mahrum qilmasdan, shu so'zlarning xususiyatlarini o'zlarida mujassamlashtiradilar. Ayrim so'zlar bir qancha mustaqilliklarini saqlaydilar, biroq ularning ishlatilishi keskin chegaralangan va belgilangan bo'ladi. Bu maqolli iboralar, odatda, erkin so'z guruhlariga omonim bo'lib keladilar.

Anashu maqolli iboralarni yasalishi nuqtai nazaridan quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin.

1. Ilgari erkin bo'lgan so'z guruhlarining metaforik ishlatilishi natijasida paydo bo'lgan maqolli iboralar. Bu turdagi maqolli iboralar katta bir guruhni tashkil etadi. Masalan:

donner un oeuf pour avoir un boeuf – oz sarflab ko'p olmoq;

écraser dans l'oeuf – „ildizidan quritmoq,„

déchirer la main qui nourrit – yaxshilikka yomonlik qilmoq.

2. Metonimik ishlatishga asoslangan maqolli iboralar. Masalan:

vingt têtes, vingt avis – har boshda har aql, har kallada har hayol.

3. Giperbola (mubolag'a) asosiga qurilgan maqolli iboralar. Masalan:

faire d'une mouche un éléphant – pashshadan fil yasamoq:

ne savoir rien de rien - hech narsa bilmaslik:

être couse d'or – puli oshib-toshib yotmoq;

4. Pleonazmlar frazeologik qo'shilmalarning semantik (ma'no) butunligini ko'rsatishi mumkin, ayrim holda pleonazmlar antiteza (obrazilarni qaram-qarshi qo'yish asosiga qurilgan bo'ladi. Masalan:

être tout sucr tout miel – shirinso'z bo'lmoq:

à tort et à raison – haq yoki nogoh:

aller (passer) du blanc au noir - o'zini har tomonga urmoq:

5. Kalambur, ya'ni so'z o'yini asosida qurilgan frazeologik iboralar. Bir semantik

butunlikni ifodalaydi. Masalan:

prendre l'air entre deux airs – har xil qiyofaga kirmoq;

léger comme un éléphant – filday engil;

claire comme de l'eau de vaisselle – suvday tiniq;

aller à Cracovie – aldamoq;

aller au Crevant – olmoq;

Bob bo'yicha xulosa.

„Xulq-atvor,, birikkan frazeologik birliklarni o'rganish, inson faoliyatining o'ziga xosliklarini, jamiyatda uning mavjud me'yorlariga mos kelishi yoki ularning buzilishini oydinlashtiradi.

Inson „xatti-harakati,, frazeosemantik maydonini ikki tilni ya'ni, o'zbek va fransuz tillarini qiyoslab o'rganganimizda semantik jihatdan farq qiluvchi katta hajimdagi ta'sirli iboralarni uchratdik.

Yana shuni ta'kidlash joizki, inson xatti-harakatida ijobiylikni ifodalaydigan iboralarga nisbatan salbiy taraflarni ifoda qiluvchi frazeologizmlar soni ko'p.

II. Bob . Frazeologil birliklarning milliy madaniy semantikasini ifodalovchi leksik komponentlar.

2.1. Rang komponenti bilan ifodalanuvchi frazeologik birliklar.

Rang tabiat hodisasi bolib ma'lum bir ko'rish sezgilarini chaqiruvchi vosita. Yevropa tillarida asosi ranglarga ajratiladigan differensial belgilar tizimi tusdan, tuyg'unlikdan va yorqinlikdan tashkil topadi. Ammo Yevropa ranglarga qarama-qarshilari, ya'ni spektrlarga bo'linadiganlari ham bor.

A. Vejbitskayaning fikricha, hamma xalqlar madaniyatida insonlar uchun asosiysi ko'rib idrok qilish va nima ko'rayotganini tasvirlashi kerak bo'ladi, ammo ular

ko'rish bilan bog'liq bo'lgan „rang,, terminiga e'tibor bermaydilar. Shunday qilib rang universalialari emas ko'rib idrok qo'lish universalialari mavjud. Ular insonlar uchun bir xil, ammo turli madaniyatlarda tilga oid konseptualizatsiya har xildir.

Zamonaviy ilm-fanda tilda ranglar ifodalanishi xalq og'zaki nutqi rivoji bilan uzviy bog'liq. „Ba'zi ma'lumotlarga qaraganda inson ko'zi yigirma bir millioncha bo'lgan rang-tusni farqlay oladi.

„Inson boshqa tirik mavjudotga nisbatan eshitish va ko'rish obrazlarini farqlay oladi. Ammo uning xid bilishi qobiliyati, masalan uch yuz mingga yaqin hidni ajrata oladigan itnikidan kam rivojlangan.

Ranglar terminologiyasini yuzaga keltiruvchi olimlarni fizik,, ijtimoiy, psixologik va lingvistikaga oid obyektiv borliqqa kiritish mumkin, shu sababdan ham ranglar muammosi keng qamrovli mutaxassislar doirasi e'tiborini o'ziga tortadi: filologlar, psixologov, lingvistlar, fiziklar, antropologlar.

Har bir tilda ma'lum ranglar tizimi shakillangan. Ular mavjud tilning o'ziga xos va boshqa tillarga nisbatan farqli tomonlarni ham aks ettiradi.

A. Vejbitskasning ta'kidlashicha, til va madaniy tizimlar bir-biridan keskin farq qilishadi, ammo inson tili, fikrlashi va madaniyati semantik va leksik universalialarga asoslanadi.

